



METODIST FAOLIYATI ASOSLARI

Sidiqova Yulduz Sobirovna

Osiyo Xalqaro universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi

tel:+998914164032

yulduzsobirova048@jmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada metodistning maktabgacha ta’lim tashkilotida tutgan o‘rni vazifalari, bajarishi lozim bo‘lgan vazifalar, malaka talablari tahlil qilingan.

Kalit so‘z: Uslubchi, malaka talabi, ta’lim -tarbiyaviy faoliyat, davlat talablari, ilg‘or pedagogik texnologiya.

Abstract: This article analyzes the role of the teacher in the organization of preschool education, the tasks that he must perform, as well as qualification requirements.

Key words: Methodist, qualification needs, educational activities, state requirements, advanced pedagogical technologies.

Аннотация: В данной статье анализируются роль педагога в организации дошкольного образования, задачи, которые он должен выполнять, а также квалификационные требования.

Ключевые слова: Methodist, квалификационная потребность, образовательная деятельность, государственные требования, передовые педагогические технологии.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni yuksak umumiy qadriyatga, kasb-hunar ko‘nikmalarga,



ijodiy va ijtimoiy faollikka, mantiqiy mushohada qilish hamda ijtimoiy hayotdagi muomalaning oqilona yechimlarni topish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarni odilona baholay oladigan kadrlar yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama barkamol, ta'lim va tarbiya dasturlarini ong ravishda mukammal o'zlashtirgan, mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ustavida metodistning ish jarayonida huquq va vazifalari aniqlab belgilab beriladi, ya'ni u metodik jihatdan kuchli ma'naviy, siyosiy ongi, dunyoqarashi keng, tadbirkor, kamida bitta xorijiy tilni biluvchi pedagoglardan tayinlanadi. Metodist talablarni qo'yishda talabchan va qat'iy bo'lishi kerak. Rahbarning o'ziga bo'ysunuvchilar bilan muloqotning emotsional-irodaviy tomonini ifodalovchi bu sifatlar rahbarlik uslubining muhim xislatini, talabchanlikni hosil qiladi. Yuksak talabchanlikni sezgirlik, xayrixohlik, odamlarga hurmat bilan birga olib borish zarur.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining ta'lim-tarbiyaviy faoliyatining samaradorligi uning obro'si ko'p jihatdan pedagoglar jamoaning jipslashganligiga, eng avvalo, butun maktabgacha tashkiloti rahbar yadrosida birlik va o'zaro tushunishning mavjudligiga bog'liq bo'ladi.

Tarbiyachilarning aniq intizomi va ishda uyushqoqligini ta'minlash;

jamoada jamoa fikrini, tarbiyachilarning bir-birlarining kamchiliklariga tanqidiy munosabatini shakllantirish, mehnat faolligi va ijodiy ishlash ehtiyojini rag'batlantirish; qabul qilingan qarorlar yechimini ta'minlash kabi ijtimoiy-psixologik masalalarni hal qilish metodist uchun birmuncha murakkablik qiladi.

Har bir yosh mutaxassis ishini endi boshlayotgan yosh tarbiyachi maslahatlar olib turishi uchun unga tajribali amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan murabbiyni biriktirish lozim. Yosh mutaxassisning kasb mahoratini egallab olishi osonlik bilan bo'lmaydi. Mana shuning uchun ham yosh pedagog ishining ilg'or metodlari va usullarini egallashga, o'z bilimlarini doimo to'ldirib borishga, erishilganlar bilan cheklanmay, tarbiya turlarini egallash ishtiyoqini singdirishga yo'llash metodistning vazifasi hisoblanadi.



Shuningdek, metodist quyidagilarni bajarishi lozim:

- maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiyaviy ishga metodik rahbarlikni amalga oshiradi;
- "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining bajarilishini ta'minlaydi va nazorat qiladi, ta'lim-tarbiyaviy ishning to'g'ri uyushtirilishi uchun javobgar;
- ilg'or pedagogik tajribani o'rganadi, umumlashtiradi va tarqatadi, Pedagogik kengashda ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi;
- maktabgacha ta'lim tashkilotidagi metodik kabinetning ishini tashkil qiladi; bolalarning yoshlariga muvofiq pedagogik qo'llanmalar va o'yinchoqlarni tanlaydi;
- ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ibot qilish, turli guruh tarbiyachilari, shuningdek, Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab ishida uzviylikni ta'minlash bo'yicha ishni uyushtiradi.

O'z hamkasblarining hurmatini qozonishi va ularga o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlarida yordam berish uchun metodist qanday rahbarlik sifatlariga ega bo'lishi lozim.

Metodist faqat yaxshi nazariy tayyorgarlikkagina emas, balki bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmasiga ham ega bo'lishi zarur. Tajribali metodistning tashabbuskorligi va ishga ijodiy yondoshishi orqali maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishish mumkin. G'oyalarini umumlashtira bilish, maqsadga muvofiq ishlash, har bir tarbiyachining imkoniyat va qobiliyatlarini hisobga olishiga qarab farqlanadi. Metodistda liderlik qobiliyatining shakllanganligi jamoadagi pedagoglarni jipslashtirishda, boshqarishda katta ahamiyatga egadir. Shuningdek metodistda tashkilotchilik estetik qobiliyatlarning mujassam bo'lishi talabchanligi guruhlar bilan o'tkaziladigan, tashkil qilinadigan tadbirlarda ham ko'rinadi. Tarbiyachilar bilan hamjihatlikda o'tkazilagan tadbirlar metodist faoliyatining, uning mas'uliyatining bir qismi bo'lib bu asosan bayram ertaliklarini tashkil qilishda tarbiyachilarda beradigan maslahatlarida talab va takliflarida namoyon bo'ladi. Tadbirlarni tashkil qilishda tashkilotchi, boshqaruvchi sifatida metodistning o'rni muhim.



Metodistning lavozim vazifalari quyidagilardan iborat ;

- a) maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasi o'quv-tarbiyaviy faoliyatiga metodik rahbarlik qilish;
- b) barcha yosh guruhlarda bolalarni tarbiyalash va o'qitish dasturlarining bajarilishini ta'minlash va nazorat qilish;
- v) tarbiyachi va tibbiy xodimlar ishini yo'naltirish, nazorat qilish, bevosita bolalar bilan ishlovchi tarbiyachilarga va tibbiy hamshiralarga zarur metodik yordam ko'rsatish;
- g) maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik kabinet ishini tashkil qilish, bolalarni tarbiyalash va o'qitish bo'yicha yo'riqnoma-metodik materiallarni umumlashtirish;
- d] ilg'or tajribalarni o'rganib, tarbiyachilar orasida tajriba almashish ishlarini tashkil qilish, tarbiyachilar uchun ularga amaliy yordam berish maqsadida maslahatlar o'tkazish;
- e) bolalar tarbiyasining dolzarb masalalarini pedagogik kengash muhokamasiga kiritish, pedagogik kengashlarga materiallar tayyorlash va unda tarbiyachilarning maqsadli ishtirokini ta'minlash;
- j) maktabgacha ta'lim tashkilotida qabul qilingan buyruqlarning bajarilishini nazorat qilish:
- z) ota-onalar orasida pedagogik bilimlariing tashviqoti bo'yicha hamda maktabgacha ta'lim muassasasida turli yosh guruhlar bo'yicha tarbiyachilar ishida izchillikni ta'minlash;
- i) ta'lim muassasasi faoliyatiga qo'yilgan sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;
- b) hukumatning tegishli qarorlari, Maktabgacha ta'lim agentligi tomonidan chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlarni;
- v) maktabgacha yoshdagi bolalarnining rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablarini;
- g) maktabgacha pedagogika va psixologiyani, maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalash shakl va metodlarini;
- d) maktabgacha ta'limga davlat talablarini bajarilishini nazorat qilish shakllari va metodlarini, bolalar hayoti va sog'ligini muhofaza qilish qoidalarini;



e) pedagogik fan va amaliyotda ishlab chiqilgan metodik hujjatlarni, o'quv va tarbiya jarayonida o'qitish texnikaviy vositalaridan foydalanish amaliyotini.

Malaka talablari:

a) o'z yo'nalishi bo'yicha kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot yoki kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot.

b) xorijiy tillardan birining boshlang'ich bosqichini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi;

uch yildan kam bo'lmagan pedagogik ish staji.

Metodist quyidagilarni bilishi lozim:

1. Maktabgacha ta'lim sohasidagi amaldagi normativ huquqiy hujjatlarni o'rganishi, bilishi lozim. Chunki metodist amaldagi huquqiy hujjatlar haqida tushunchaga ega bo'lsagina maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilariga bu haqida tushuncha bera oladi.

2. Maktabgacha ta'limga qo'yilgan davlat talablarining mazmunini va davlat talablarida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablarining sohalarini va har bir sohaning kichik sohalarini bilishi zarur. Chunki maktabgacha ta'lim tashkilotida bola quyidagi beshta soha bo'yicha rivojlantirilishi kerak. Ular quyidagilar:

1. "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

yirik motorika;

mayda motorika;

sensomotorika;

sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik.

2. "Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

"Men" konsepsiyasi;

hissiyotlar va ularni boshqarish;



ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.

3. “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo‘linadi:

nutq va til;

o‘qish malakasi;

qo‘l barmoqlari mayda motorikasi.

4. “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo‘linadi:

intelektual- anglash malakalari

elementar matematik malakalar;

tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat.

5. “Ijodiy rivojlanish” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo‘linadi:

dunyoni badiiy tasavvur etish;

badiiy-ijodiy qobiliyatlar.

3. Tarbiyalanuvchilarni ta’lim tarbiya dasturlari va boshqa muqobil (variativ) dasturlar orqali bilim olishini ta’minlashda pedagoglarga amaliy metodik yordam ko‘rsata olishni.

4. Maktabgacha pedagogika va psixologiya haqidagi tushunchalarga ega bo‘lishi kerak. Chunki har bir bola alohida shaxs va har bir bola individual xarakterga ega. Har bir bola turli xildagi temperament tipiga mansub bo‘ladi. Qachonki metodist psixologiydan xabardor bo‘lsagina tarbiyachilarning bolaga yondashuvini nazorat qila oladi.

5. Pedagogik fan va amaliyotda ishlab chiqilgan metodik hujjatlarni, ta’lim va tarbiya jarayonida axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish amaliyotini bilishi hozirgi rivojlanib borayotgan zamon uchun o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etuvchi talab desak mubolag’a bo‘lmaydi. .



6. Pedagogika va psixologiya, bolalar fiziologiyasi sanitariya qoidalari va gigiena normativlari talablari mehnatni muxofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog mutaxassislarining asosiy malaka tavsiflarini bilshi bu metodistdan talab qilinadigan asosiy talablardir.

Shunday qilib uslubchi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilariga o'rnak bo'ladigan darajada bilimga, saviyaga ega bo'lsagina, rivojlanish davrining talablariga javob bera olsagina biz uni haqiqiy uslubchi deya olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. –T.,2020.
- 2.O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonuni".T.,2019.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022 – 2026 -yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. 29.01.2022
- 4.G.Q.Hasanova , Z.B.Jalilov Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi "Durdona" nashriyoti Buxoro -2021
- 5.Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. "Toshkent", 2001
- 6.A.M.Jumanov, F.A.Alimova,G 'M.Ochilov, O.K.Ergashev Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. "Toshkent", 2020
7. N.T.Tosheva." Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish" "Kamolot" nashriyoti Buxoro - 2022